

HOZIRGI KUNDA YOSHLAR TARBIYASI

Maxamatova Mexribonu Abduraxmon qizi

ISFT instituti “Pedagogika” ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi

maxamatovamexribonu@gmail.com

Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna

ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrası dots., p.f.n.

rayhonsarsenbayeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasi masalasi yoritilgan bo‘lib, oilaning, maktabning, jamiyatning hamda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va mutafakkirlarning qarashlari asosida tarbiyaning mohiyati ochib berilgan. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ota-onalarning mas’uliyati, pedagoglarning roli va milliy qadriyatlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Tarbiya – jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodning komil shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar tarbiyasi, oila, maktab, jamiyat, ma’naviyat, axloq, ota-ona mas’uliyati, pedagogika, qadriyatlar, komil shaxs.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема воспитания молодежи, анализируется роль семьи, школы, общества и социальных сетей. На основе законов Республики Узбекистан и взглядов мыслителей раскрывается сущность воспитания. Особое внимание уделяется духовно-нравственному развитию молодежи, ответственности родителей, роли педагогов и значению национальных ценностей. Воспитание оценивается как ключевой фактор устойчивого развития общества и формирования гармоничной личности будущего поколения.

Ключевые слова: Воспитание молодежи, семья, школа, общество, духовность, нравственность, ответственность родителей, педагогика, ценности, гармоничная личность.

Abstract: This article examines the issue of youth upbringing, focusing on the influence of family, school, society, and social media. Based on the laws of the Republic of Uzbekistan and the views of prominent thinkers, the essence of upbringing is revealed. Special attention is given to the spiritual and moral development of youth, parental responsibility, the role of educators, and the importance of national values. Upbringing is evaluated as a crucial factor for the sustainable development of society and the formation of a well-rounded personality in future generations.

Keywords: *Youth upbringing, family, school, society, spirituality, morality, parental responsibility, pedagogy, values, well-rounded personality.*

Hozirgi kunda yoshlarimizning tarbiyasiga katta e’tibor qaratishimiz lozim. Tarbiyani ona qornidaligidanoq boshlashimiz, yoshlarning tarbiyasi, fikrlash doirasiga ham e’tibor qaratishimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonunda: “tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”⁴⁵, deb ta’kidlab o‘tilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanganligi, telefon va turli xil o‘yin, vidyolar bolalar va o‘smirlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirda yoshlar telefonga mukkasidan ketganligi, maktabda ham darslarni o‘zlashtirmayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bularning barchasi kitob o‘qimaslik, ota-ona vaqtida farzandlariga vaqt ajratmasligi, go‘daklik chog‘idayoq bolalarni uyali a’loqa bilan chalg‘itishidadir. Kattalarga hurmatsizlik qilayotganlarni ham ko‘ramiz. Yoshlar tarbiyasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu bois yoshlarni tarbiyasi masalasi: ota-onalar, pedagoglar va butun jamiyat zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek⁴⁶: “Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash – bu bizning eng muhim maqsadimizdir. Farzandlarimiz sog‘lom, bilimli, ornomusli, yurtga sadoqatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart.”

Bolaning shaxsi tug‘ilganidan boshlab ijtimoiy muhitda shakllanadi. Oila, bog‘cha, maktab, mahalla va ijtimoiy tarmoqlar bolaning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va o‘zini tutish me’yorlarini belgilaydi. Ijtimoiy pedagogika bolaning bu jarayonlardagi o‘rni va rivojlanishini chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, insoniy munosabatlar, mehr-muhabbat, hurmat, mas’uliyat, odob-axloq kabi tushunchalar aynan ijtimoiy pedagogikaning markazida turadi⁴⁷.

Asosiy muammolardan biri axborot oqimi yoshlar ba’zida zararli kontentga duch kelmoqda.

1. Oilaviy tarbiya zaiflashuvi, ota-onalarning bandligi yoki chet elga ishlash uchun ketishi tufayli bolalar nazoratsiz qolmoqda.

2. Milliy va ma’naviy qadriyatlarning e’tibordan chetda qolishi G‘arb madaniyatining kuchli ta’siri ayrim yoshlarning o‘zligini unutishiga olib kelmoqda. Yoshlar tarbiyasi bilan

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonuni. O‘RQ-637 son 23.09.2020.

⁴⁶ Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

⁴⁷ Xolmurodov T., Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.

ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar kuchaytirish, ota-onalari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarsi va sportga qiziqishini oshirish, iltimoij tarmoqlarda foydali va ma’naviy kontentlarni kengaytirish lozim.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda dostonlarda o‘z ifodasini topgan. Ular rostgo‘ylik, ota- onaga hurmat ehtirom kabi fazilatlar tarannum etgan. “Alpomish”, “To‘maris” kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi Sharq mutafakkirlarining ko‘pgina asrlari odob va axloqqa bevosita daxldordir. Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritilganda, uning maqsadga yo‘naltirilgan hodisa ekanligi ta’kidlanadi.

Shu o‘rinda, misol sifatida Kaykovusning “Qobusnoma asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi qator vazifalarini sanab ko‘rsatganini keltirib o‘tmoqchimiz:

1. Bolaga yaxshi ot qo‘ymoq;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To‘y-tomosha qilib, sunnat to‘y o‘tkazish;
4. O‘qish-yozishni o‘rgatib, kasb-hunar va ilmli qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo‘lsa, sipohiylikni o‘rgatish”⁴⁸ kerak degan.

Inson komolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o‘rinda turar ekan:


Bu tahlillarda ma’lum bo‘ldiki, yaxshi tarbiya ko‘rgalikning 10 ta nishonasi sanab o‘tiladi:

1. Xalq to‘g‘ri deb bilgan narsaga noto‘g‘ri deb qaramaslik.
2. O‘z nafsiga insof berishini so‘rash.
3. Boshqalardan ayb qididrmaslik.
4. Birovda yomonlik sodir bo‘lsa, uni yaxshilikka yoyish.
5. Agar gunohkor uzr so‘rasa, uning uzurini yaxshilikka yoyish.
6. Muhojirlar hojatini chiqarish.
7. El g‘amini yeyish.
8. O‘z aybini tan olish.
9. El bilan ochiq yuzli bo‘lish.
10. Odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish.

⁴⁸ Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent.: “Istiqlol”, 1994. – 85 b.

Shuningdek, barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy qismlari xususida ham fikr-mulohazalar keltirilgan (rasm)

Rasm



Bolalar hamisha jamoa qurshovida bo‘ladi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojinishi va fikrlash qobiliyati orta boradi. Bu bolalarning normal ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar bo‘lishi kerak.

Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida ham bola tarbiyasi va oilaning o‘rni alohida qayd etilgan. Unda: “Yurt kelajagi – farzandlar tarbiyasiga bog‘liq. Oiladagi har bir so‘z, harakat, muhit farzand shaxsini belgilaydi”⁴⁹ – deya ta’kidlanadi.

Yoshlar tarbiyasida ota va onalar o‘rnak bo‘lishlari kerak. Tan olish kerak, hozirda ota-onalar ham farzandlariga vaqt ajratishmaydi. Yoshlarning tarbiyasiga oiladagi muhit va atrofdagi do‘stlar ham sababchi bo‘ladi. O‘zbekimning maqollarida aytishadiku «Qush uyasida ko‘rganini qiladi». Ota-ona farzandiga avqt ajratib, uni kamol topishiga, komil shaxs bo‘lib yetishishiga yordam bermasa farzand tarbiyasida katta xatolikka uchraydi. Ko‘chadan do‘stlar ortiradi, do‘stlaridan mehr kutadi, tarbiyada katta xatolikka uchraydi.

⁴⁹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

Biz bilamizki, bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e'tiqodini, axloqiy tushuncha va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir⁵⁰.

Ota-onalar farzandlari uchun vaqt ajratib farzandlari bilan suhbatlashishi, uning qiziqishlarini, nimani yoqtirishini, nimani hoxlashi, qiziqishi haqida bilib olishi kerak. Bolalar kelajagimiz, kelajak yoshlar qo'lida. Biz pedagog sifatida yoshlar bilan uzoq suhbat qurib ma'naviy va marifiy bilim va ko'nikmalar berishimiz kerak. Chunki, yoshlar ko'p vaqtlarini maktabda ya'ni bilim dargohida o'tkazishadi. Yoshlar tarbiyasida biz pedagoglarning ham hissamiz katta. Ularga to'g'ri tarbiya berish, kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, turli ekskursiyalar tashkillashtirib turish kerak. Kutubxonalarga olib borish, dars qizizqarli bo'lishi uchun zamonaviy metodlardan foydalangan holda dars o'tish muhim hisoblanadi. Yoshlarni rag'batlantirib, sening qo'lingdan keladi deb uning o'ziga bo'lgan ishtiyoqini oshirish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tarbiya buzilishining subyektiv sabablariga o'smir shaxsining qiziqishi va ehtiyojlari, dunyoqarashi va ma'naviy olami, maqsadi va huquqiy qarashlari kiradi. Abdulla Avloniy hikmatlarini misol qilib olsak: "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"⁵¹. Shu so'zlarning ma'nosini, mag'zini chaqishimiz kerak. Bugungi kunda, yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishda ularni vatanga, oilaga va jamiyatga bo'lgan mehr-muhabbatini muntazam oshirib borishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni. O'RQ-637 son 23.09.2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2004. – 98 b.

⁵⁰ Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Moliya-iqtisod", 2019. – 388 b.

⁵¹ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2004. – 98 b.

4. Kaykavus. Qobusnoma. – Toshkent.: “Istiqlol”, 1994. – 85 b.
5. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.
6. Xolmurodov T., Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.